



HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA GAP STRUKTURASINI MURAKKABLASHTIRUVCHI VOSITALAR

Hojiyeva Nafosatxon Ilhom qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10275541>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-November 2023 yil
Ma'qullandi: 28- November 2023 yil
Nashr qilindi: 30-November 2023 yil

KEY WORDS

sodda va qo'shma gaplar, leksik-grammatik vositalar, qo'shma gapning strukturaviy tuzilishi, grammatik hodisa, sifatdoshli oborotlar, infinitivli oborotlar, izohlovchili ajratilgan gap bo'laklar, holli ajratilgan gap bo'laklar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada gap strukturasi murakkablashtiruvchi leksik-grammatik vositalar to'g'risida fikr yuritiladi. Bu borada taniqli tilshunos olimlar A.G.Rudnev, I.O. Nazarov, L.A. Melikova, G'. Abduraxmonovlarning murakkab gap sintaksisini o'rganishga bag'ishlangan rus, ingliz, o'zbek, ozarbayjon tillari materiallari asosida yaratilgan bir qator ilmiy monografik asarlar, grammatik darsliklardagi fikr-mulohazalari keltiriladi. Hozirgi zamon nemis tilida gap strukturasi murakkablashtiruvchi vositalar haqida xulosalar chiqariladi.

Gap deganda, eng avvalo sodda va qo'shma gaplarni nazarda tutamiz. Gap strukturasi murakkablashtiruvchi leksik-grammatik vositalar to'g'risida fikr yuritilganda esa, ana shu sodda va qo'shma gaplarning strukturasi murakkablashtirishda bevosita ishtirok etuvchi leksik-grammatik vositalar tushuniladi. Matnlar ustida olib borilgan kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatadiki, gaplarning strukturasi murakkablashtirishda ishtirok etuvchi vositalar funksiyasida turli gap bo'laklari, gap turlari, turli shakldagi oborotlar, gapning ajratilgan bo'laklari ishtirok etishi mumkin.

Gap strukturasi murakkablashtiruvchi leksik-grammatik vositalarni o'rganadigan soha – bu murakkab gap sintaksisidir. Murakkab gap sintaksisini o'rganishga bag'ishlangan rus, ingliz, o'zbek, ozarbayjon tillari materiallarida bir qator ilmiy monografik asarlar, grammatik darsliklar yaratilgan (A.G.Rudnev, 1959, I.O. Nazarov, 1973, L.A. Melikova, 1984, G'. Abduraxmonov, 1966).

Endi gap strukturasi murakkablashtiruvchi leksik-grammatik vositalarga xos bo'lgan ayrim xususiyatlarni quyida keltirgan ko'p komponentli ergashgan qo'shma namunasida tushuntirishga harakat qilamiz.

M.: Wie beim Eintritt gehöriger Kalte eine Glaskugel, gefüllt mit Wasser, von selbst zerplatzt, so erwachte Eli Saamen, Chemiker aus Russland, erzogen in Deutschland, gelandet in Frankreich, am 12. Oktober 1913 mit dem gefassten Entschluss, Paris zu verlassen, Europa, in dem er sich schließlich fühlte wie ein stiller Leser in einer Maschinenhalle, einem Warenhaus, einem Irrensaal und einem Lazarett, um sich nach Kleinasien zu retten, nach Palastina, ob sich dort nicht Inhalt finde für das Leben eines unerträglich amtlosen Juden. (Zweig, 153).

Bu yerda bitta ergashgan qo'shma gap namoyish qilingan. Agarda biz transformatsion metoddan foydalangan holda ushbu ergash gapni uni murakkalashtiruvchi leksik-grammatik vositalardan ozod qilsak, u holda uning ko'rinishi quyidagi shaklga ega bo'ladi:

Wie beim Eintritt gehöriger Kalte eine Glaskugel von selbst zerplatzt, so erwachte Eli Saamen am 12. Oktober 1913 mit dem gefassten Entschluss, indem er sich schließlich wie ein stiller Leser in einer Maschinenhalle fühlte, ob sich dort nicht Inhalt finde für das Leben eines unerträglich amtlosen Juden.

Ushbu misol namunasida biz to'rt komponentli har xil sintaktik xarakterga ega bo'lgan ergashgan qo'shma gapni murakkablashtiruvchi leksik-grammatik vositalarni aniqlashga o'tamiz. Bizning tahlilimizga ko'ra, ushbu ergashgan qo'shma gapning strukturaviy tuzilishini murakkablashtirishda quyidagi leksik-grammatik vositalar qatnashmoqda:

- sifatdoshli oborotlar: gefüllt mit Wasser, gelandet in Frankreich,
- infinitivli oborotlar: Paris zu verlassen, Europa zu verlassen, um sich nach Kleinasien zu retten, um sich nach Palastina zu retten,
- izohlovchili ajratilgan gap bo'laklari: Chemiker aus Russland,
- holli ajratilgan gap bo'laklari: in einem Warenhaus, in einem Irrensaal und einem Lazarett.

Demak, yuqorida namoyish etilgan ergashgan qo'shma gapning strukturaviy tuzilishini murakkablashtirishda quyidagi leksik-grammatik vositalar ishirok etmoqda: sifatdoshli oborotlar, infinitivli oborotlar, izohlovchili ajratilgan gap bo'laklar, holli ajratilgan gap bo'laklar. Namoyish etilgan ergashgan qo'shma gapning strukturasi murakkablashtiruvchi leksik-grammatik vositalar to'g'risida to'liqroq ma'lumot olish maqsadida biz ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni lozim topdik. Bunday o'zgarishlar quyidagilardan iborat: Europa - so'zi o'rniga uning to'liq - Europa zu verlassen- shaklini, nach Palastina - so'z birikmasi o'rniga, uning to'liq - um sich nach Palastina zu retten -shaklda yozdik, chunki -Paris va -nach Kleinasien kabi so'z va so'z birikmasi yordamida hosil bo'lgan infinitivli oborotlar ularga ham tegishlidir. Ikkinchi yana bir o'zgartirish bu yerda -in ko'makchising tushirilib qoldirilishi bilan bog'liq. Masalan: -einem Warenhaus, einem Irrensaal und einem Lazarett- kabi holli ajratilgan gap bo'laklari tarkibida qoida bo'yicha -in ko'makchisi kelishi kerak edi, biroq bu yerda biz kutgan natija sodir bo'lmadi, chunki -in ko'makchisi faqatgina -in einer Maschinenhalle- so'z birikmasi tarkibida takrorlanadi, xolos. Ana shu bir marta takrorlanib keluvchi- in ko'makchisi qolgan barcha -einem Warenhaus, einem Irrensaal und einem Lazarett- komponentlarga ham teng bo'lganligi uchun, ularning qanday shaklda ifodalanib kelishini ko'rsatdik.

Biz bu yerda qo'shma gaplarning strukturaviy tuzilishini murakkablashtirishda ishtirok etuvchi leksik-grammatik vositalarning boshqa bir qator grammatik va stilistik hodisalar bilan o'zaro ekanligini anglashimiz mumkin. Masalan, murakkab gap sintaksisi eng avvalo- bu grammatik hodisadir. Biroq ana shu grammatik hodisaning yuzaga kelishida stilistik jarayon muhim rol o'ynaydi. Boshqacharoq qilib aytganda, sodda va qo'shma gaplarning strukturaviy tuzilishini murakkablashtirishda ishtirok etuvchi leksik-grammatik vositalarning yuzaga kelishi bu uslub mahsulidir, aniqrog'i, yozuvchining individual uslubining hosilasidir.

Shuning uchun ham murakkab gap sintaksisi faqatgina stilistika doirasida o'rganilsa, uning lingvistik mohiyatini tushunish osonroq bo'ladi. Bunga sabab shuki, murakkab gap sintaksisi tarkibida sodir bo'ladi, bu esa ularning doimo o'zaro bog'liqlikda o'rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент, 1996. -247 бет.
2. Меликова Л. А. Структурно- семантические и стилистические особенности предложений, осложненных несколькими глогами. Автореферат дисс. На соиск. учен. степ. канд. филол. наук. -1984.-25 с.
3. Назаров И.Д. Сложносочиненное предложение усложненного типа в современном азербайджанском языке. На соиск. учен. степ. канд. филол. наук. – Баку, 1973. 29 с.
4. Руднев А.Г. Синтаксис усложненного предложения. –М., 1959. – 198 с.

